

**SOLIQ ISLOHOTLARI ORQALI IQTISODIY BARQARORLIK:
MISR TAJRIBASI**

Yusufova Begoyim Isakjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Mintaqaviy iqtisodiyot 2-kurs RU-23 guruhi talabasi

ysufovabegoyim@gmail.com

Abduxakimov Abdulaziz Abdug'ani o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

"Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" 2-kurs talabasi

abduxakimovabdulaziz001@gmail.com

Chinorova Shahodat Mansur qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Mintaqaviy iqtisodiyot 2-kurs RU-23 guruhi talabasi

shchinorova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Misr Arab Respublikasida amalga oshirilgan soliq islohotlari, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, soliq tizimining turlari va ularning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Tahlil qilingan ma'lumotlar Misrning so'nggi yillardagi iqtisodiy siyosatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada soliq stavkalari, elektron soliq tizimlari, xalqaro shartnomalar va ijtimoiy sug'urta tizimi haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Misr, iqtisodiy inqiroz, soliq siyosati, soliq tizimi, inflyatsiya, ishsizlik, Xalqaro Valyuta Jamg'armalari, soliq to'g'risidagi qonun, soliq islohotlari, daromad solig'i.

KIRISH

Soliq mamlakat daromadlarining asosiy qismi hisoblanadi va u davlat

iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliq - davlat tomonidan belgilab qo'yilgan qonunlar asosida jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlaridan, foydasidan yokida mol-mulkidan undiriladigon, so'ngra esa budjetga o'tkaziladigon majburiy to'lov hisoblanadi.

Soliq siyosati har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Bu siyosat davlatning fiskal daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Soliq tizimi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. U davlat budjetining asosiy daromad manbai bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatga erishish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va moliyaviy integratsiya davrida soliq siyosatini zamonaviy va samarali mexanizmlar asosida yuritish davlatlar uchun dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Soliq siyosati — bu davlatning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun soliqlarni belgilash, yig'ish va taqsimlash jarayonlarini boshqarish strategiyasi va tizimidir. U jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni yaratish va davlat byudjetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Soliq siyosatining asosiy vazifalari:

- Budjet daromadlarini shakllantirish: davlatning asosiy daromad manbai sifatida soliqlarni yig'ish;
- Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: soliq siyosati orqali inflyatsiya, ishsizlik va iqtisodiy inqirozlarni boshqarish;
- Investitsiyalarni rag'batlantirish: soliq imtiyozlari va yengilliklar orqali biznes va investitsiyalarni qo'llab – quvvatlash;

- Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish: rag'batlantiruvchi soliq siyosati orqali ishlab chiqarish va iste'mol faoliyatini rag'batlantirish.

Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq imtiyozlarini belgilash va boshqalar hisoblanadi.

So'nggi yillarda Misr Arab Respublikasi soliq siyosatini tubdan isloh qilishga kirishdi. Mamlakatda soliqqa tortish bazasini kengaytirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq yig'imlarining shaffofligini oshirish va elektron hisob-kitob tizimlarini joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Misr hukumati bu orqali soliqlarni faqat daromad manbai emas, balki iqtisodiy rivojlanishning kuchli instrumenti sifatida ko'rishga harakat qilmoqda.

Misrdagi soliq islohotlari mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xalqaro investorlar ishonchini oshirish, shuningdek, davlat xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada Misr soliq tizimining asosiy turlari, soliq stavkalari, oxirgi yillardagi islohotlar, elektron soliq tizimi va xalqaro soliq hamkorlik borasidagi faoliyati tahlil qilinadi.

Maqolaning o'rganilganlik darajasi

Misrning soliq siyosati va islohotlari mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Khalid Ikramning "The Political Economy of Reforms in Egypt"¹ asarida Misrning iqtisodiy islohotlari va siyosiy qarorlarining tahlili keltirilgan. Ikramning fikricha, iqtisodiy siyosatning shakllanishi va uning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri haqida batafsil ma'lumot berilgan.

M. Baher El-Hifnawi tomonidan yozilgan "Reform of Income Taxation in

¹https://www.academia.edu/117951256/Khalid_Ikram_The_Political_Economy_of_Reforms_in_Egypt_Issues_and_Policymaking_since_1952_American_University_of_Cairo_Press_Cairo_2018

Egypt”² maqolasi, 1990-yillarning boshlarida Misrning soliq islohotlari, xususan, 1993-yildagi Soliq Kodeksi va uning iqtisodiy samaradorligini o’rganadi. El-Hifnawi fikriga ko’ra, soliq tizimidagi islohotlarning iqtisodiy o’sishga qanday ta’sir ko’rsatishi tahlil qilingan.

Mahmoud M. Abdellatif va Binh Tran-Nam tomonidan yozilgan “Tax Policy Challenges in an Era of Political Transition: The Case of Egypt”³ maqolasi, 2011-yilgi inqilobdan keyingi siyosiy o’zgarishlar davrida Misrning soliq siyosatidagi muammolarni o’rganadi. Abdellatif va Tran-Namning fikricha, siyosiy o’zgarishlarning soliq siyosatiga qanday ta’sir ko’rsatishi tahlil qilingan.

ASOSIY QISM

1990-yillarning boshlarida Misr iqtisodiy inqiroz va tashqi qarzlarining ortishi kabi muammolar bilan yuzlashdi. Bu sharoitda, xalqaro moliya institutlari, xususan, Xalqaro Valyuta Jamg’armasi (XVJ), Misr hukumati bilan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va o’sishni rag’batlantirish maqsadida strukturaviy islohotlarni amalga oshirish bo’yicha kelishuvlarga erishdi. Ushbu islohotlarning markazida soliq siyosati va tizimining modernizatsiyasi turardi.

1980-yillarning oxiriga kelib, Misrning tashqi qarzlarini sezilarli darajada oshdi. 1990-yilga kelib, tashqi qarzlar YaIMning 100% dan ortiqni tashkil etdi. Bu holat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda jiddiy to’siqlar yaratdi. 1991-yilda Misr hukumati XVJ bilan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va tashqi qarzlarini kamaytirish maqsadida kelishuvga erishdi.

1990-yillarning boshlarida Misrda amalga oshirilgan tizimli islohotlarning ajralmas qismi soliq islohotlari edi. Qabul qilingan yangi qonunlar qatorida daromad solig’i to’g’risidagi qonun bor edi. Bu qonun, boshqalar qatori, Misr soliq tizimini zamonaviy soliq tizimini ancha yaqinroq qilgan⁴. 1993-yilda yangi Soliq

² https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=317039

³ https://www.researchgate.net/publication/316550480_Tax_policy_challenges_in_an_era_of_political_transition_The_case_of_Egypt

⁴ https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=317039&utm

Kodeksi (Qonun № 187/93) qabul qilindi. Ushbu kodeks, soliq tizimini soddalashtirish va shaffofligini oshirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, umumiy savdo solig'i (GST) 1991-yilda joriy etildi, bu esa iste'mol solig'ini almashtirdi va soliq bazasini kengaytirdi.

Hukumat tomonidan korxonalarga soliq stavkalari kamaytirildi, bu esa investitsiya muhitini yaxshilashga rag'batlantirishga hamda investitsiya oqimini ko'paytirishga yordam berdi. Shuningdek, soliq imtiyozlari va istisnolarning ko'pligi kamaytirildi, bu esa soliq tizimining adolatini oshirdi. Soliq yig'ish tizimi ham yanada takomillashtirildi. Soliq yig'ish tizimi modernizatsiya qilinishi natijasida soliq yig'ish samaradorligi oshdi. Soliq idoralari va xodimlarining malakasi oshirildi.

Misir hukumatida 1991 – yilda boshlangan soliq islohotlari natijasida real YaIM o'sishi 1995-1996-yilga 4 % ga yetdi. Bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam berdi. Shuningdek, soliq tizimini takomillashtirish orqali inflyatsiya darajasini 21 % dan 1996 – yilga kelib 7 % ga tushurishga erishildi. Soliq tizimidagi imtiyozlardan so'ng mamlakatga kirib keladigon xorijiy investitsiyalar hajmi ham sezilarli oshdi, bu esa iqtisodiy o'sishni qo'llab – quvvatladi⁵.

Bugungi kunda Misr soliq siyosati keng qamrovli islohotlar bosqichiga kirgan bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda soliq tizimini soddalashtirishga qaratilgan. 2025-yil fevral oyida kuchga kirgan 5-6 va 7-sonli qonunlar orqali hukumat soliq tartibotlarini modernizatsiya qilish, soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazishni rag'batlantirish va soliq nizolarini hal qilish mexanizmlarini takomillashtirishni maqsad qilgan⁶.

Xususan, 5-sonli qonun soliq to'lovchilar uchun ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish imkoniyatini yaratib, ularni joriy va o'tgan yillardagi soliq majburiyatlarini kechiktirmasdan bajarishga undaydi. 6-sonli qonun esa yillik daromadi 20 million

⁵ <https://www.afdb.org/fileadmin/uploads/afdb/Documents/Project-and-Operations/ADB-BD-IF-99-130-EN-EGYPT-PCR-SAL.PDF?utm>

⁶ <https://www.taxspoc.com/articles/egypt-transforming-taxation-in-2025-key-highlights-of-laws-no-5-6-and-7?utm>

EGP gacha bo'lgan kichik va o'rta korxonalar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etadi, bu esa ularning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Standart korporativ daromad solig'i

T/r	Kichik va o'rta korxonalar yillik daromadlari	Belgilangan soliq stavkasi
1	500 000 EGP dan past daromad	0,4 %
2	500 000 yevrodan 2 million yevrogacha bo'lgan daromad	0,5 %
3	2 million yevrodan 3 million yevrogacha bo'lgan daromad	0,75 %
4	3 million yevrodan 10 million yevrogacha bo'lgan daromad	1 %
5	10 million yevrodan 20 million yevrogacha bo'lgan daromad	1,5 %

Agar kichik va o'rta korxonalar **20 million EGP chegarasidan bir marta (20% gacha) besh yil ichida oshib ketsa**, u 1,5% soliq stavkasidan foydalanishda davom etishi mumkin. Biroq, agar u ushbu chegaradan bir necha marta oshib ketsa, keyingi yil u huquqini yo'qotadi.

Bundan tashqari, 7-sonli qonun soliq jarimalarini cheklash va soliq jinoyatlarini hal qilish bo'yicha yangi tartiblarni joriy etadi, bu esa soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu qonunda soliq tizimini modernizatsiya qilish, adolat va samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan.

Ushbu islohotlar Misrning xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi bilan hamkorlikda olib borayotgan iqtisodiy siyosatining muhim qismidir. Mamlakat soliq siyosatini soddalashtirish va byudjet daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga intilmoqda.

XULOSA

Misrning 1990-yillardan boshlab amalga oshirgan soliq islohotlari mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) bilan hamkorlikda boshlangan bu islohotlar orqali fiskal muvozanatga erishish, inflyatsiyani kamaytirish va tashqi qarzlarni nazorat qilishga muvaffaq bo'lindi. 2025-yilda qabul qilingan yangi qonunlar (5-, 6- va 7-sonli) esa kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, soliq tartibotlarini soddalashtirish va soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, bu islohotlarning muvaffaqiyati ularning amaliyotda qanday tatbiq etilishiga bog'liq. Soliq tizimining murakkabligi, raqamli tizimlarga o'tishdagi qiyinchiliklar va soliq nizolarini hal qilishdagi noaniqliklar kabi muammolar mavjud. Shuningdek, islohotlar ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Umuman olganda, Misrning soliq islohotlari iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim qadam bo'lib, bu tajriba boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1. Khalid Ikram — "The Political Economy of Reforms in Egypt: Issues and Policymaking"**

https://www.academia.edu/117951256/Khalid_Ikram_The_Political_Economy_of_Reforms_in_Egypt_Issues_and_Policymaking_since_1952_American_University_of_Cairo_Press_Cairo_2018

2. Mahmoud M. Abdellatif va Binh Tran-Nam — "Tax Policy Challenges in an Era of Political Transition: The Case of Egypt" January 2016

https://www.researchgate.net/publication/316550480_Tax_policy_challenges_in_an_era_of_political_transition_The_case_of_Egypt

3. M. Baher El-Hifnawi — "Reform of Income Taxation in Egypt" 20 July, 2002

https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=317039&utm

4. <https://www.afdb.org/fileadmin/uploads/afdb/Documents/Project-and-Operations/ADB-BD-IF-99-130-EN-EGYPT-PCR-SAL.PDF?utm>

5. <https://www.taxspoc.com/articles/egypt-transforming-taxation-in-2025-key-highlights-of-laws-no-5-6-and-7?utm>